

## AVTOBUS TRANSPORTINING BOZOR SHAROITIGA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Nasirov Ilham Zakirovich - *t.f.n., prof.*  
**Yo'ldashev Vohidjon Toxirjon o'g'li - talaba.**  
*Andijon mashinasozlik instituti*

Avtobus transporti xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish va avtotransport xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'yektlarning har biriga teng sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilayotgan oslohotlar tufayli ushbu xizmatdan deyarli barcha hududlar aholisi ham bahramand bo'lmoqda. Respublikamizda avtobus transporti sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlanirish, xususiy avtokorxonalar faoliyatini kengaytirish, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, transport xizmatlari ko'rsatishda mijozlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1,2].

Avtobus transporti xizmatlari bozorida raqobatdoshlikning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borganda bevosita avtobus transporti va unga xos bo'lgan xususiyatlar, raqobat va raqobatdoshlik hamda transport xizmatlari bozorida raqobatning ahamiyatini tahlil qilish maqsadga muvofikdir.

Avtobus transportining ishlab chiqarish tizimidagi ahamiyati qo'yidagi bir necha belgilari bilan aniqlanadi: mamlakat iqtisodiyotiga bilvocita ta'siri, transport mahsulotining tarmoqlararo ahamiyati, transport vositalaridan foydalanishda ijtimoy manfaatning ustuvorligi [3,4].

Avtobus transporti quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- avtobus transporti mahsulotini jamg'arish imkoniyatining yo'qligi qo'shimcha tashish qobiliyatiga ega bo'lishni hamda avtobus-yo'l tarmoqlarida o'tkazuvchanlik zaxiralarini shakllantirishni taqozo etadi;
- doimiy infratuzilmaviy inshootlarni nisbatan tez sur'atlarda barpo etish zaruriyati hamda ularning o'tkazuvchanlikqobiliyatidan uzoq muddat foydalanishni taqozo etadi;
- avtobus-yo'l tarmoqlari uzoq muddatlarda barpo etiladi va yuqori kapital sarfini talab etadi;
- asosiy vositalardan uzoq muddat foydalaniladi va ularni to'ldirish manbalari cheklangan bo'ladi;
- avtobus transporti rivojlanirish va transport ishi ko'rsatkichlari tabiiy omillarga bog'liq bo'ladi. Avtobus transporti xizmatlari bozorida raqobatdoshlik masalasini tadqiq etish, eng avvalo, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanib, ular raqobat muhitining turfa xilligida namoyon bo'ladi [5,6].

Avtobus transporti xizmati raqobatdoshlik darajadisini baholash muayyan vaqtida ta'sir qiluvchi ko'p sonli omillar qatorining bирgalikdagi ta'sirini hisobga olishni taqozo etadi. Ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish avtobus transporti xizmatining raqobatdoshlik darajasidagi yutuqlari yoki kamchiliklariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi.

Raqobatdoshlikka ta'sir qiluvchi omillar tabiatdan bir xil emas, xarakter va ta'sir etish jihatdan ular istemolchilarning qiziqishlari, to'lovga qobiliyatligi, xizmat ko'rsatishning qulayligi va ishonchhliligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, avtotransport ximatlari raqobatdoshlikligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni o'rganish hamda avtobus transporti xizmati raqobatdoshligi va uning tasniflanishiga aniqlik kiritib o'tish muhimdir. Shu nuqtai nazardan ta'sir qiluvchi omillarning tasniflanishi avtobus hisobga olgan holda, tizimli yondashuvni talab etadi [3,7].

Umumiy holatda olib qaralganda, avtobus transporti xizmati raqobatdoshligiga ta'sir qiluvchi muhim omillarga qo'yidagilar kiradi: davlatning iqtisodiy siyosati, fan-texnika taraqqiyoti, huquqiy me'yorlar, tabiiy-iqlim sharoitlari, raqobatchilik strategiyasi, avtobus transporti xizmati infratuzilmasining rivojlanish darajasi va boshqalar.

Avtobus transportidan foydalanish samaradorligini oshirish ustuvor muammolardan biri hisoblanib, bu avtobus transporti tizimi faoliyati sifatiga bo'lgan talablarning o'sishini belgilab beradi. Avtobus transporti faoliyatini tashkil etish murakkab texnologik jarayon bo'lib, ushbu murakkablik qo'yidagi omillar bilan belgilanadi: avtobus transporti tizimi tarkibida turali xususiyatga ega bo'lgan ko'p sonli elementlarning mavjudligi, moddiy, servis, moliyaviy omil va parametrlarning tartibsizlikka xos fe'l-atvori, sub'yektiv omillar ta'siri va boshqalar [9,10].

Bugungi kunda yirik avtobus transporti korxonalari soni keskin kamayib, asosan xususiy operatorlar faoliyat yuritishmoqda. Buning oqibatida vujudga kelgan raqobatchilik muhiti avtobus transporti xizmatlarini ko'rsatuvchi operatorlardan samarali texnik, texnologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi talab etilmoqda, aks holda bozordan chiqib ketishga majbur qilmoqda. Endilikda nafaqat zamonaviy texnik vositalarga ega bo'lish, balki ushbu harakat vositalarining samarali tijorat ekspluatatsiyasini ta'minlay olish vazifasini uddalagan operatorlargina keskin raqobat sharoitida yashovchanlik immunitetiga raqobatdoshligia arzon narx, yuqori sifat va ekspluatatsion ko'rsatkichlar hal etuvchi omillar sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Avtobus transporti xizmatlari bozorida raqobatdoshlikning o'ziga xos xususiyatlari ayniqla, avtobus transportida yo'lovchi tashish va ularga sifatli xizmat ko'rsatishda ham aks etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni, avtobus

transporti xizmati bozorida raqobatning vujudga kelishi, qaysi mulkchilikka mansubligidan qat'iy nazar, barcha yo'lovchi tashuvchi korxonalarda aholiga yuqori sifatli transport xizmati ko'rsatish masalasini eng birinchi hal qilinishi kerak bo'lgan masalga aylantirib qo'ydi.

Hozirgi davrda harakatlanuvchi tarkiblar, aksiyadorlik jamiyatları, xususiy tashuvchilar bir-biri bilan hamda aksiyadorlik jamiyatları bilan raqobatlashmoqda. Yo'l harakati va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ko'rsatilayotgan avtotransport xizmatlarining sifatini yanada yaxshilash respublikamizda avtobus transportini yanada rivojlantirish sohasida olib borilayotgan siyosatning asosiy yo'naliшlaridan hisoblanadi. Shu bois tarmoqda tashkiliy-xuquqiy islohotlar izchil davom ettirilmoqda [11].

Avtobus transporti xizmatlari bozori uning ishtirokchilari, ya'ni xususiy tashuvchilarning hisobiga yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borishiga qaramasdan, uning ishidagi muammolar to'la hal qilinmagan. Aholiga transport xizmatini ko'rsatishda kamchiliklarni yuzaga keltiruvchi asosiy sabablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- harakatlanuvchi tarkiblarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning qoniqarli tashkil etilmaganligi;
- yo'naliшlarning zarur avtobuslar bilan yetarli ta'minlanmaganligi;
- bosh va shoxbekatlarda, yo'naliшlarda transport jarayonini tashkil etishning samarali shakllaridan va ilg'or usullaridan sust foydalanilishi.

Avtobus transporti xizmatida raqobatdoshlik atamasi eng avvalo, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanib, ular raqobat muhitining turfa xilligida aks etadi. Avtobus transport xizmati raqobatdoshlik darajasini baholash muayyan vaqtida ta'sir qiluvchi ko'psonli omillar qatorining birgalikdagi ta'sirini hisobga olishni taqozo etadi. Ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish avtobus transporti xizmatining raqobatdoshlik darajasidagi yuquqlari yoki kamchiliklariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi [12].

Raqobatdoshlikni oshirishga ta'sir qiluvchi omillar tabiatdan bir xil emas, xarakter va ta'sir etish jihatdan ular iste'molchilarning qiziqishlari, to'lovga qobiliyatligi, xizmat ko'rsatishning qulayligi va ishonchliligida namayon bo'ladi. Umumiy holatda olib qaralganda, avtobus transporti xizmati raqobatdoshligini oshirishga ta'sir qiluvchi muhim omillariga quyidagilar kiradi: davlatning iqtisodiy siyosati, fan-texnika taraqqiyoti, huquqiy me'yorlar, tabiiy-iqlim sharoitlari, raqobatchilik strategiyasi, avtobus transporti xizmatlari infratuzilmasining rivojlanish darjasini va boshqalar. Xulosa qilib aytish mumkinki, avtobus transporti xizmati raqobatdoshligini oshirishga arzon narx, yuqori sifat va ekspluatatsion ko'rsatkichlar hal etuvchi omillar

sifatida ta'sir ko'rsatar ekan.

### ADABIYOTLAR:

1. Насиров, И. З., & Гаффаров, М. Т. (2021). Электронная система платежей в автобусах. *Естественнонаучный журнал «Точная наука*, 117, 2-5.
2. MUMINOVICH, S. A., & ZAKIROVICH, N. I. (2022). Prospects for the development of multimodal transportation technology. *Saybold Report (TSRJ): Saybold Publications, Box, 644(428)*, 468-475.
3. Насиров И.З., Гаффаров М.Т. Присоединение Республики Узбекистан к Киотской конвенции // Процветание науки. 2021. №2 (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prisoedinenie-respublikи-uzbekistan-k-kiotskoy-konventsii> (дата обращения: 29.03.2024).
4. Ilxam Zakirovich, N., & Abdirayim o'g'li, S. B. . (2022). TAKOMILLASHTIRILGAN «ADAS» DASTURI. *Scientific Impulse*, 1(3), 1107–1112. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1249>
5. Насиров, И. З., & Камолов, Ш. С. BOBUR SHOX VA S. ZUNNONOVA KO'CHALARI KESISHMASIGA SVETOFORLARNI O'R NATISH. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 7, 102-107.
6. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YOL BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 122–127. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>
7. Насиров, И. З., & Тўлқинхўжаева, Н. Р. (2022). Транспорт оқимини бошқаришда С дастурлаш тилидан фойдаланиш. № DGU 15711. *Официальный бюллетень Агентства по интеллектуальной собственности*, 4.
8. Насиров Ильхам Закирович и Солиев Бобуржон Абдираим Коулз. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ADAS В ПОМОЩЬ ВОДИТЕЛЯМ. *Американский журнал междисциплинарных исследований и разработок*, 5, 94–105. Получено с <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/112>.
9. Турдиалиев, У. М., Насиров, И. З., & Ахмадалиев, Ж. А. Транспорт воситаларини ишлатиш учун ахборот технологиялари ва тизимлари. *Yangi materiallar texnologiyasi: mashinasozlikda qo'llaniladigan polimer kompozit materiallarning rivojlanish istiqbollari* mavzusida xalqaro ilmiyamaliy konferensiya материаллари. Maxsus son materiallari. Анджен: АндМИ-2022 й, 7-13.

10. Организация пассажирских перевозок в городе Андижане с учетом экологического фактора. (2024). *Инновации: Международный междисциплинарный журнал прикладных технологий (2995-486X)*, 2(1), 4-7. <https://multijournals.org/index.php/innovative/article/view/361>
11. Nurdinov Murodali Aljonovich, Nasirov Ilxam Zakirovich. ANDIJON SHAHRIDAGI TRANSPORT OQIMLARINING TAHLILI//PEDAGOG RESPUBLIKA ILMUY JURNALI. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL, 232-239 b.
12. To‘rabyoyev Holmorod Rustamjon o‘g‘li, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2024). JAMOAT TRANSPORTI USTUVORLIGINI TA’MINLASHNING MAQBUL TADBIRLARI. *Journal of New Century Innovations*, 47(1), 114–122. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/11757>